



# XALQ PEDAGOGIKASIDA MILLIY URF-ODATLAR, AN'ANALAR VA UDUMLAR

*Shahrisabz shahar Qunduzak masjidi imom xatibi*

*Mallayev Azamxon Jalolovich*

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti Pedagogika  
fakulteti pedagogika yo'nalishi 2-kurs talabasi*

*G'ofurova Fayyoza Baxtiyor qizi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada xalq pedagogikasi tizimida milliy urf-odatlar, an'analar va udumlarning tarbiyaviy imkoniyatlari tahlil qilinadi. Maqola zamonaviy ta'lim tizimida xalq pedagogikasi vositalaridan foydalanishning dolzarbligini ilmiy-nazariy asosda yoritadi.

**Kalit so'zlar:** xalq pedagogikasi, urf-odat, an'ana, udum, milliy tarbiya, xalq og'zaki ijodi, qadriyatlar, ma'naviyat.

**Абстрактный.** В статье анализируется воспитательный потенциал национальных обычаев, традиций и практик в системе народной педагогики. В статье на научно-теоретической основе подчеркивается актуальность использования средств народной педагогики в современной системе образования.

**Ключевые слова:** народная педагогика, обычай, традиции, нравы, народное воспитание, народное устное творчество, ценности, духовность.

## KIRISH

Xalq pedagogikasi – bu xalq hayot tajribasiga tayanuvchi, ma'naviy va axloqiy me'yirlarni avloddan avlodga uzatib keluvchi noyob tarbiya tizimidir. O'zbek xalqining boy tarixi, urf-odatlari, an'analarini va udumlari yosh avlodni tarbiyalashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ular orqaligina bolalar ongiga ezgulik, odob, vatanparvarlik, halollik kabi tushunchalar singdiriladi. Milliy urf-odatlar – millatning turmush-tarziga singib ketgan, uning shakllanishi va rivojiga xizmat qiladigan ijtimoiy madaniy hayotida o'z aksini topgan, doim takrorlanib turadigan xatti-harakat,



ko‘pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari va ko‘nikmalar ko‘rinishidir.

[1]

Milliy urf-odatlar bizning xalqimizda o‘ziga xos o‘zbekona tarixiy xususiyatlarga ega bo‘lib, an’anaviy va zamonaviy ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Milliy urf-odatlar va an’analar har bir millatda o‘ziga xos tizimni tashkil etadi, xalq tomonidan turmush tarzining zaruriy sharti deb qabul qilinadi. Milliy urf-odatlarga befarqlik kishini, millatni o‘zligidan uzoqlashtiradi. Milliy urf-odatlarda vatanga, millatga bo‘lgan hurmat-e’tibor va sadoqat tajassum topadi. Mamlakatimizda istiqlol tufayli 130 dan ortiq millat va elat vakillari urf-odat va an’analarini asrab avaylash, takomillashtirish uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. Bu hol millatlararo munosabatlarning rivoji, o‘zaro do‘stlik va totuvlik rishtalarining mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

### 1. Milliy urf-odatlar va ularning tarbiyadagi o‘rnini

Urf-odatlar – bu xalq hayotining muhim jihatlaridan biri bo‘lib, ularning madaniyati, turmush tarzi, dunyoqarashi bilan chambarchas bog‘liqdir. Masalan, “Navro‘z” bayrami nafaqat tabiat uyg‘onishining ramzi, balki yoshlarni mehnatga, tabiatga mehr-muhabbat bilan qarashga o‘rgatadi. “Beshik to‘yi”, “Sunnat to‘yi”, “Nikoh to‘yi” kabi marosimlar orqali esa insoniy qadriyatlar, oila ahamiyati, ota-onan hurmati yosh avlodga singdiriladi. Urf-odatlar – bu ijtimoiy hayotda shakllangan, jamiyat tomonidan qabul qilingan qadriyatlar va marosimlardir. Xalq pedagogikasida bu odatlar shaxsnинг ma’naviy shakllanishiga xizmat qiladi.

Masalan: Beshik to‘yi – bolaning dunyoga kelganini e’tirof etish bilan birga, oilaning jamiyat oldidagi mas’uliyatini kuchaytiradi.

Sunnat to‘yi esa bolani jamoa a’zosi sifatida tan olish, uni axloqiy me’yorlarga tayyorlash bosqichidir.

Nikoh va kelin salom – oilaning muqaddasligi, er-xotin o‘rtasidagi hurmat, sabr-toqat, o‘zaro mas’uliyat g‘oyalarini yosh avlod ongiga singdiradi.

Bu urf-odatlar orqali oila, jamiyat, yurt, ota-onaga hurmat kabi fazilatlar xalq ongida mustahkamlanadi[2]. Bunday urf-odatlar orqali xalq bolalarga milliy qadriyatlarni o‘ziga xos shaklda singdiradi.



## 2. An'analar – avlodlar davomiyligini ta'minlovchi vosita

An'analar – bu avloddan-avlodga o'tib kelayotgan qadriyatlardir. Masalan, mehmonnavozlik, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, qo'shnichilik rishtalari o'zbek xalqining an'anaviy tarbiyaviy fazilatlaridandir. Bu kabi an'analar oilaviy va ijtimoiy hayotda muhim o'rinni tutib, farzandlar ongiga axloqiy me'yorlarni singdirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi[3].

Mehmonnavozlik an'anası – bolaning ochiqko'ngil, muruvvatli bo'lishini ta'minlaydi.

Kattalarga hurmat – har bir yosh avlodga "katta kishi" timsoli orqali andoza beriladi. Bolalar doimo katta kishilar oldida hurmatda bo'lish, ularning so'zlariga qulqoq tutish, o'zini tutish madaniyatiga ega bo'ladi.

Qo'shnichilik rishtalari – har bir insonning o'z muhitiga nisbatan mas'uliyatli bo'lishini ta'minlaydi. O'zbek an'analarida qo'shniga yordam berish, shodlikda sherik, g'amda hamdard bo'lish madaniyati mujassam. An'analar xalqning axloqiy madaniyatini, ijtimoiy munosabatlarini shakllantiradi va yosh avlod ongiga singdiradi.

## 3. Udumlar – xalq hayotining ko'zgusi

Udumlar – urf-odat va an'analar bilan yaqin bo'lsa-da, ko'proq marosimlar, liboslar, ovqatlar, xalq amaliy san'atida namoyon bo'ladi. Masalan, milliy kiyimlar – atlas, adres, do'ppi kiyish orqali ham yoshlar milliy g'urur, o'zligiga sadoqat ruhida tarbiyalanadi. O'zbek xalqining "qaynona kelinini o'rgatar", "kuyov salom beradi" kabi udumlari orqali esa ijtimoiy me'yorlar mustahkamlanadi. Udumlar xalq turmush tarzining estetik jihatini namoyon etadi. Xalq pedagogikasida udumlar orqali bolaga nafaqat ma'naviyat, balki did, estetik qarashlar ham singdiriladi. Milliy kiyimlar, xalq musiqa asboblari, xalq o'yinlari, marosimlar – bular estetik, ruhan boy shaxsni tarbiyalaydi. Masalan, Navro'z bayramida yoshlar tabiatga mehr, mehr-oqibat, shukronalik ruhida tarbiyalanadi

Milliy kiyimlar (atlas, adres, do'ppi) – yoshlar ongida o'ziga xoslik, iftixor, estetik did tarbiyasini shakllantiradi.

Xalq o'yinlari va ashulalari – bolalarda jismoniy va aqliy faoliyatni rivojlantiradi, mushohadali fikrleshsga, hamkorlikda ishlashsga o'rgatadi.



Bayramlar (Navro‘z, Hayit, Hosil bayrami) – bolalarning tabiatga mehr bilan qarashiga, mehnatni qadrlashga, tinchlik, totuvlik g‘oyalarini tushunishiga yordam beradi. Udumlar orqali xalq o‘z madaniyatini avlodlarga yetkazadi, shaxs shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

## XULOSA

Xalq pedagogikasi o‘zining tabiiyligi, milliyligi, uzbekligi bilan zamonaviy tarbiya tizimi uchun beqiyos manbadir. Milliy urf-odatlar, an’analar va udumlar yosh avlodni shaxs sifatida kamol toptirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ular orqali milliy o‘zlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, ma’naviy poklik kabi fazilatlar yosh ongiga singadi. Shu bois, hozirgi globallashuv davrida milliy qadriyatlarimizni targ‘ib etish, ularni zamonaviy ta’lim tizimi bilan uyg‘unlashtirish dolzarb masalalardan biridir. Bu borada har bir ustoz, har bir ota-onasiga xalq pedagogikasining boy tajribasiga tayanib, yoshlarni barkamol inson qilib voyaga yetkazishda faol bo‘lishi zarur.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev SH.M. “Buyuk kelajagimizni mard va olivjanob xalqimiz bilan birga quramiz”. “O‘zbekiston”, 2017
2. Xoldorova, Z. (2019). O‘zbek xalq pedagogikasi asoslari. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.
3. Karimova, M. (2020). “An’anaviy marosimlar va tarbiyaning uyg‘unligi”. Pedagogika va psixologiya, 4(2), 45–49.
4. Normurodov, A. (2021). Milliy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. Samarqand: Registon.
5. Shomurodova, S. (2018). “Navro‘z an’analarining estetik va tarbiyaviy ahamiyati”. Ma’naviyat, 3(1), 33–37.
6. Mutualipova M.J. Xalq pedagogikasi – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2011 y.
7. Joyce, B., Calhoun, E., Hopkins, D “Pedagogy, Teaching Practices” 2004, Pedagogy, Curriculum, Teaching Practices and Teacher Education in Developing Countries.e



8. Xusniddin, Milinorov, and Mavlonova Malika. "Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy-pedagogik tayyorlash jarayonida kommunikativ kompetentsiyalarini rivojlantirish metodikasi." *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi* 7 (2024): 296-304.
9. Xushmatovich, Milinorov Xusniddin. "Pedagogik faoliyat jarayonida bo 'lajak pedagoglarni raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish." *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi* 7 (2024): 305-312.
10. Милиноров, Хусниддин Хушматович, and П. М. Жалолова. "ПРОЦЕСС ОРГАНИЗАЦИИ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ В ВЫСШЕЙ ШКОЛЕ." *Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies*. Vol. 3. No. 5. 2024.
11. Anatolyevna, Boyarkina Yulia, Sokhibov Akram Rustamovich, and Milinorov Khusniddin Khushmatovich. "EDUCATIONAL TOURISM AS A POTENTIAL FOR THE DEVELOPMENT OF THE REGION." *Web of Teachers: Inderscience Research* 2.6 (2024): 185-189.
12. Milinorov, XX va DN Eshmuratova. "O'ZBEK URNAVALARI, MAROSIMLARI VA ODAMLARINI SHAXS TARBIYOTIDAGI O'RNI". *Web of Teachers: Inderscience Research* 2.5 (2024): 205-209.
13. Djomalov A. Raqamli pedagogika asoslari. – Toshkent: "Innovatsiya", 2023